



## ISLOM BANKLARI TARKIBIDAGI TASHKILOTLAR MOHIYATI VA UNING FUNDAMENTAL ASOSLARI

**Eshimov Alisher Dusmurodovich,**  
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
Rivojlantirishning ilmiy asoslari va  
muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss1/a10](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a10)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islom banklari tarkibidagi tashkilotlarni tashkil etish asoslari, mamlakatimizda Islom Banklari tarkibidagi tashkilotlarning ahamiyati, bu borada xorijiy olimlarning qarashlari va ilmiy izlanish natijalari, Islom banklarini tashkil etishdagi muammolar o'rganilib, ularni hal qilish bo'yicha tegishli tartibda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** islom banklari, resurs, tovar, ishlab chiqarish, aktiv, moliyalashtirish, bozor, talab, vositachilik, biznes, mijoz, tadbirkorlik, investor, tashkilot, daromad, risk, qarz, foiz.

## СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИЙ ВНУТРИ ИСЛАМСКИХ БАНКОВ И ЕЕ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ

**Эшимов Алишер Дусмуродович**  
Научно-исследовательский центр «Научные основы и  
проблемы развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены основы организации исламских банковских структур, значение Исламских банковских организаций в нашей стране, взгляды зарубежных ученых на эту тему и результаты научных исследований, проблемы организации Исламских банков, выработаны соответствующие выводы и предложения по их решению.

**Ключевые слова:** ислам, банк, ресурс, товар, производство, актив, финансирование, рынок, спрос, посредничество, бизнес, клиент, предпринимательство, инвестор, организация, доход, риск, долг, проценты.

## THE ESSENCE OF ORGANIZATIONS WITHIN ISLAMIC BANKS AND ITS FUNDAMENTAL FOUNDATIONS

**Eshimov Alisher Dusmurodovich**  
Research Center "Scientific bases and issues  
of economic development Uzbekistan"

**Annotation.** In this article, the foundations of the organization of organizations within Islamic banks, the importance of organizations within Islamic banks in our country, the opinions of foreign scientists and the results of scientific research, problems in the organization of the activities of Islamic banks, conclusions and proposals on their solution were developed in the appropriate order.

**Keywords:** islamic, banking, resource, commodity, production, asset, financing, market, demand, mediation, business, client, entrepreneurship, investor, organization, income, risk, debt, interest.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat normativ-huquqiy baza, balki ular o'rtasidagi xulq-atvor qoidalari bilan birlashtirilgan ma'lum bir institutsional me'yorlar majmuasi asosida tartibga solinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bozor subyektlari o'rtasida resurslarning adolatli taqsimlanishini va ulardan foydalanish jarayonida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlash hisoblanadi. Investitsion faoliyat samaradorligini baholashda eng muhim masala investitsiyalardan kutilayotgan daromad miqdori hisob-

lanadi. Bunday holatda tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy foydaliligi, ular ishlab chiqarayotgan tovarlar va ko'rsatayotgan xizmatlarga bo'lgan aholining talabi bilan baholanadi. Biroq iqtisodiyotdagi monopollashuv va takror ishlab chiqarish jarayonlarining davriy xususiyati – ishlab chiqarishga sarflanayotgan resurslarning tannarxi va tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad o'rtasidagi mutanosiblikka erishish qiyin.

Bozor ishtirokchilari o'rtasida ishlab chiqarish omillarining turli darajada ta'minlanishi tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishiga

olib keldi, bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida aktivlarni jamg'arish imkoniyati paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Ushbu jamg'arma egalari tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga moyil bo'lgan shaxslar hisoblanib, o'z jamg'armalarini investitsiyalarga yo'naltirish natijasida daromadlarini yanada ko'paytirib, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va yirik mulk egalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Buning natijasida uzoq vaqt davomida moliyaviy vositachilik xizmatlari bozori rivojlanmay, monopollashgan holatda saqlanib qoldi, bu esa moliyaviy resurslaridan foydalanishda kreditlar uchun yuqori foiz belgilash imkonini berdi.

O'z navbatida, dunyo mamlakatlar iqtisodiyoti notekis rivojlanganligi sababli hozirgi vaqtda global iqtisodiyotning asosiy segmentlari hisoblangan savdo va moliya sohasining xalqaro integratsiyalashuviga olib keldi, bu esa mamlakatlarning jahon iqtisodiy munosabatlari tizimidagi o'rnini mustahkamlaydi [1].

Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlarda markaziy o'rin egallamoqda va jamiyatning faol qatlami tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Shuningdek, jamiyat a'zolari o'rtasida mulkka egalik qilishda tengsizlikning paydo bo'lishi va bozordagi ba'zi kompaniyalarning monopol mavqega ega bo'lish sabablari bo'yicha turli mulohazalar mavjud. Yuqoridagi muammolarni hal qilishga qaratilgan keng ko'lamlı tadqiqotlar bozor mexanizmining o'zini o'zi boshqarish imkoniyati va ishlab chiqarish omillari uchun adolatli narxlarga avtomatik ravishda erishish ehtimoli to'g'risidagi qarama-qarshi qutbli liberal doktrinalar bilan ifodalanadi. Qarama-qarshi qutbga mansub tadqiqotchilar monopoliyaga qarshi ishlab chiqarish vositalariga jamoat mulkini kiritish va ishlab chiqarish omillariga narxlarni davlat tomonidan belgilash orqali kurashish zarurligini ta'kidlaydilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotimiz davomida Islom moliyasining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va uning ahamiyati, Islom banklari tarkibidagi tashkilotlarning vazifalari, ishlab tartibi va ularni tashkil etishning fundamental asoslari, ularning me'yoriy-huquqiy jihatlari qiyosiy tahlillar asosida ochib berishga harakat qilindi. Islom banklari tarkibidagi tashkilotlarni tashkil qilishda xorij tajribalari va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari analitik tahlil usullaridan foydalangan holda yoritib berildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** M.Ahmed Zebal, M.H.Saber tadqiqot natijalariga ko'ra, banklarning bozorga yo'naltirilganlikning islomiy bozor yo'nalishi deb ataladigan boshqa

tabiati aniqlandi. Tadqiqot islomiy bozor yo'nalishini shakllantirishni o'zida mujassam etgan beshta elementni (islomiy xaridorga yo'naltirish, axborotga yo'naltirish, integratsiyaga yo'naltirish, raqobatga yo'naltirish va nihoyat, sezgirlikka yo'naltirish) aniqlab ko'rsatadi [2].

R.Ghayad islom bankinging islom tamoyillariga asoslangan kompaniya sifatidagi faoliyati nafaqat miqdoriy xarakterdagi ichki o'zgaruvchilar (masalan, moliyaviy ko'rsatkichlar), balki ichki sifat o'zgaruvchilari bilan ham ta'sir qilishini tahlil qilgan. Bundan tashqari islom banki va an'anaviy bank faoliyati maqsadlar darajasi bo'yicha bir-biridan farq qilganligi sababli bir xil tarzda o'lchanmasligi kerakligi va Islom banki tarkibidagi tashkilotlar shariat qoidalariga amal qiladigan va maslahat sifatini yaxshilash uchun moliya va tijorat sohasida malakaga ega bo'lishi kerakligini ko'rsatgan [3].

R.A.Abdel Karim Islom banklari biznes va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda Islomda vahiy qilingan aqidalarga amal qilishlari kerak deb hisoblaydi. Yaqinda islom banklari tomonidan moliyaviy hisobotlarni tashqi tartibga solish uchun maxsus standartlarni belgilovchi organ – Islom banklari va moliya institutlari uchun moliyaviy hisob tashkiloti (FAOIBFI) tashkil etilganligi va FAOIBFI islom banklari uchun buxgalteriya hisobi standartlarini belgilashda asos bo'lib xizmat qilish uchun moliyaviy hisobotning maqsadlari va tushunchalari bo'yicha o'z takliflarini keltirib bergan [4].

R.A.Karim fikricha, Islom banklari ham tijorat, ham investitsiya bank xizmatlarini amalga oshiradi, lekin bu ikki xizmatni qonuniy, moliyaviy va boshqaruv jihatdan ajratishni taklif qiladi. An'anaviy tijorat banklaridan farqli o'laroq, islom banklariga foizlar undirish yoki to'lash taqiqlanadi. Buning o'rniga islom banklari foydani taqsimlovchi investitsiya hisoblarini taklif qiladi, shunda investorlarning daromadlari investorlar mablag'lari tomonidan moliyalashtirilgan aktivlarning daromadiga bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [5].

Sh.A.Shovxalov xo'jalik Islom banki faoliyatini ko'p jihatdan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni, unda ishtirok etuvchi ijtimoiy guruhlar manfaatlarini amalga oshirish imkoniyatini, shuningdek, shaxsning hayot darajasi va sifatini belgilaydi. Bu boradagi eng muhim masala islom qonunlariga mos keladigan biznesni yaratish va rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish muammosidir [6].

T.Y.Mazurina, Sh.F.Sharipov Islom moliyasida (islom bankingi) bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish jarayoni yetarli darajada

rivojlanmaganligi, bundan tashqari u an'anaviy bank tizimlaridagidek kuchli emasligini aytib o'tgan. Islom moliyasining jahon bozoriga ancha faol integratsiyalashuvi, bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligini hisobga olsak, bu muammoni, eng avvalo, islomiy moliyaviy nazorat jarayoni, banklar va bank nazoratining xalqaro standartlari normalarini uyg'unlashtirish orqali hal etishni taqozo etadi [7].

Mahalliy olimlardan S.Abrorov tomonidan islom moliyasiga oid ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, unda islom moliyasining umumiy rivojlanish tendensiyalari davrlar, mintaqalar, mamlakatlar va moliyaviy sektorlar kesimida tahlil qilingan. Ilmiy ishlar, asosan, islomiy qimmatli qog'oz – sukuk tadqiqiga bag'ishlangan [8].

**Tahlil va natijalar.** XX asrning boshlarida amaliyotga joriy etilgan jamiyatning ijtimoiy boshqaruv tuzilmasining liberal va konservativ konsepsiyalari asosida iqtisodiyotni tashkil etish shakllarini nazariy amalga oshirishning kamchiliklari yaqqol ko'zga tashlandi. Kapitalistik jamiyatlarda pul va fond bozorlarida chayqovchilik qilish natijasida yirik mulkdorlar sinfi keskin ortdi, bu esa ishlab chiqarish faoliyatini inqirozga olib keldi. Sotsialistik tizimlar ham mukammallikdan yiroq edi, chunki sotsialistik tizimlarda ishlab chiqarish jarayonlarining xususiy mulkchilikdan uzilgan holda tashkil etilishi iqtisodiy faoliyatning noratsional tarzda amalga oshirilishiga olib keldi.

Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish muayyan turdagi normativ huquqiy bazani shakllantirishi, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishni cheklovchi yoki taqiqlovchi, shuningdek, qunularga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan ta'sir choralarining muayyan tizimini joriy etishga asoslanadi. Ko'rinib turibdiki, monopoliyaga qarshi kurashda qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlashning institutsional chora-tadbirlari hukumat tomonidan iqtisodiy rivojlanish manfaatlarini ko'zlab qo'llaniladi. Shu bilan birga, kamyob ishlab chiqarish omillariga ega bo'lgan xo'jalik faoliyatning alohida ishtirokchilari, olingan ortiqcha foyda miqdori va qonunbuzarlarni belgilangan qonun va tartiblarga amal qilishga majburlovchi davlat muassasalarining jazo choralari yoki nisbati asosida tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Bank tizimi haqida gap ketganda, ba'zi o'rinlarda bank tarkibidagi tashkilotlar ham tilga olinadi. Bunda "kvazibank" atamasini ham uchratish mumkin. "Kvazibank" atamasi bank ta'sischiligida tashkil etilgan nobank tashkilotlar degan

ma'noni anglatadi. Rossiya bank tizimida bu atamadan foydalanish salbiy ma'noga ega, chunki u bank qonunchiligini buzgan holda turli xil jinoiy sxemalarni yaratgan tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq jahon amaliyotida "kvazibank" atamasi kengroq ma'noga ega bo'lib, to'laqonli bank maqomiga ega bo'lmagan, markaziy bankning litsenziyasiga ega bo'lmagan, lekin shu bilan birga moliya instituti sifatida o'z mijozlariga cheklangan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi yoki moliyaviy xususiyatiga ko'ra shunga o'xshash xizmatlarni taklif qiluvchi tashkilot ma'nosini bildiradi. Buni dunyoning turli mamlakatlaridagi bozorning katta ulushini tashkil etuvchi kvazibank institutlari faoliyati tasdiqlaydi.

Italiyada bank ta'sischiligida tashkil etilgan nobank tashkilot tarmoqlari mamlakat moliya tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. 2017-yilda bank ta'sischiligida tashkil etilgan nobank tashkilot institutlari o'z mijozlariga umumiy hajmi 21,88 milliard yevroga teng xizmatlar ko'rsatdi va bu tashkilotlarning bozordagi ulushi 14 %ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bilan Yevropa mamlakatlari orasida 4-o'rinni qayd etdi [9].

Bundan ko'rinib turibdiki, bunday institutlar moliya bozorining ishtirokchilari sifatida uning muhim ulushini ham tashkil qiladi. Bunday muassasalar me'yoriy hujjatlarda turli atamalar bilan belgilanadi.

Singapurda bank tarkibidagi tashkilotlar ham moliya bozorining teng huquqli ishtirokchilari hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasining 2009-yil 28-sentabrdagi 64-sessiyasida Singapur Respublikasi Tashqi ishlar vaziri jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozining vujudga kelish sabablari haqida gapirganda, "Jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozi tez orada tugaydi, deb o'ylash xato bo'ladi. Inqiroz iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar natijasida kelib chiqdi. Ortga qaraydigan bo'lsak, iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar banklar va ular tarkibidagi institutlarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi natijasi bo'lganini ko'ramiz" [10], – degan edi.

Avstriyaning sobiq moliya vaziri Hannes Androsch o'zining "Ishonch yo'qolganda Yevropa Ittifoqi moliyaviy jihatdan zaif bo'ladi" tahlilida shunday degan: "Prudensial talablardan bo'yin tovlash bugungi moliyaviy inqirozning asosida yotadi, ishonchga asoslangan tizimga bo'lgan ishonchning yo'qolishi oqibatida u yanada kuchayadi. Bu Bears Sterns, Lehman Brothers va boshqa Amerika investitsiya banklari, Yevropada esa Northern Rock, UBS, WestLB va boshqa banklar ko'rsatganidek, bank tizimining, shu jumladan, bank ta'sischiligida tashkil etilgan nobank tashkilot institutlarining zaifligini ochib berdi [11].

Hannes Androsh maqolasining ikkinchi qismida alohida moliyaviy korporatsiyalar, banklar va transmilliy kompaniyalar misolida Yevropadagi iqtisodiy inqirozga sabab bo'lgan bank bozori-ning tarkibiy tahlili keltirilgan.

Filippinda ham bank tarkibidagi tashkilotlar mavjud bo'lib, mamlakatda tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi "Federal bank qoida-lari" qonunida keltirilishicha, bank ta'sis-chiligida tashkil etilgan nobank tashkilotlar mijozlariga bank tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmat-larni ko'rsatolmaydigan tashkilotlar, deb ta'rif berilgan. Shu sababli Filippin Markaziy banki bank ta'sis-chiligida tashkil etilgan nobank institutlariga quyidagi shartlarda moliyaviy xizmatlar ko'rsa-tishga ruxsat bergan:

- bunday muassasaning tashkil etilishida investorlar soni 20 kishidan oshmasligi kerak;

- bunday muassasani tashkil etish uchun Filippin Moliya Departamentidan 8.2 R.A. 8791.1 [12] bo'limiga muvofiq bank ta'sis-chiligida tashkil etilgan nobank tashkilotlar litsenzyasi talab qilinadi.

Bank tarkibidagi tashkilotlarda ta'sis-chilar sonini cheklashning shunga o'xshash amaliyoti Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ham uch-raydi. Masalan, Filippindagi kabi tashkilotdagi to'liq ta'sis-chilar soni 20 kishi bilan cheklangan. "Tashkilotdagi ta'sis-chilar soni yigirma nafardan oshmasligi kerak. Ta'sis-chilar soni belgilangan miqdordan oshgan taqdirda tashkilot bir yil ichi-da mustaqil xo'jalik yurituvchi jamiyatiga aylanti-rilishi zarur. Agar bu muddat ichida ta'sis-chilari-ning soni belgilangan chegaragacha kamaymasa, sud tartibida tugatiladi (05.05.2014-yildagi 99-FZ-sonli Federal qonuni bilan kiritilgan xatbo-shi)[13].

O.A.Tarasenko ham o'z tadqiqotlarida shunga o'xshash iqtisodiy-huquqiy ziddiyatni qayd etib, Rossiya Federatsiyasida aslida bank ta'sis-chiligida tashkil etilgan nobank institutlari ko'p yillar davomida faoliyat yuritib kelmoqda, ammo ularning moliyaviy faoliyatini tartibga solib turuvchi qonuniy baza mavjud emas, degan fikrni bildirgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining "Banklar to'g'risida"gi qonuniga bank ta'sis-chiligi-da tashkil etilgan nobank tashkilotlar bir yoki bir nechta moliyaviy operatsiyalarni litsenzyasiz amalga oshirishi to'g'risida bandni qo'shish zarur. Bunday tashkilotlar uchun moliyaviy operatsiya-larining maqbul birlashmasi ularning faoliyati to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjat bilan belgi-lanadi [14].

Umuman olganda, bunday iqtisodiy sub-yektlar moliya bozorida o'z faoliyatini tashkil

etish va yuritish orqali davlatning ba'zi vazifala-rini amalga oshirishga ko'maklashishi mumkin: Bular quyidagilar:

1. Moliyaviy xizmatlarning keng doirasini ko'rsatish orqali bank bozorining investitsion jozibadorligini oshirish.

2. Mijozlar bazasini kengaytirish va o'zaro hamkorlikning shaffof mexanizmini ta'minlash orqali yashirin iqtisodiyot bozorini qisqartirish.

3. Mamlakatning bank sektoriga bank tar-kibidagi institutlar faoliyatini tashkil etish orqali integratsiya platformalarini yaratish.

4. Mijozlar va kvazibank muassasalari o'rtasidagi barcha operatsiyalarni identifikatsiya qilish orqali soliqlar ko'rinishidagi davlat budget daromadlarini oshirish.

5. Kvazibank institutlari ko'p yillardan buyon o'z moliyaviy faoliyatini amalga oshirib kelayotgan davlatlar bilan tajriba almashadigan xalqaro platformalar, ko'rgazmalar, ishchi guruh-lar tashkil etish.

"Kapitalning bir nuqtada to'planishi mintaqada bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zga-rishlarga olib keldi. Dastlab jamiyat neftga bo'l-gan talabning o'sishi fonida narxlarning ko'tarili-shi natijasida gullab-yashnagan bo'lsa, so'ngra ja-miyatdagi mavjud qadriyatlar sababli aholi o'rta-sida ma'lum bir ziddiyatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy modernizatsiya jarayoni uchun zarur edi [15].

Islom dinida iqtisodiy munosabatlarni tar-tibga solish uchun institutsional me'yorlarni joriy etishdagi asosiy imkoniyat islom ta'limotlari qoi-dalariga e'tiqod qiluvchi insonlarning ma'naviy va moddiy dunyosiga kiritishga asoslanadi. Bunda islom diniga e'tiqod qiluvchi har bir insonning har qadami, harakati va tafakkuri aniq ko'rsatma-lariga rioya qilishni talab qiladigan shariat qo-nunlariga asoslanadi.

Islom iqtisodiyotida maysir paydo bo'lishi-ga olib keladigan qimor o'yinlari taqiqlangan[18]. Tor ma'noda, kazinolarda qimor o'ynash va lote-reyalarda ishtirok etishdan daromad olishga yo'l qo'yilmaydi. Chunki bunday faoliyat mehnatdan foydalanish va ishlab chiqarishni tashkil qilishni o'z ichiga olmaydi. Keng ma'noda maysir tovar-xomashyoni ishlab chiqarishni tashkil etmasdan yoki foydali xizmatlarni ko'rsatmasdan, ularning summasini spekulyativ ravishda oshirish maqsa-dida pul mablag'larining harakati paytida yuzaga keladi [17].

Islom iqtisodiy tizimi mehnat xizmatlarini ko'rsatishdan kelib chiqadigan xususiy mulkni, shuningdek, uning davlat va kooperativ shakllari-dagi davlat mulkini tan oladi. Bu holatda mark-sizm ta'limoti bilan o'xshashlik bor, unga ko'ra



boylik kapital tomonidan emas, balki faqat mehnat bilan yaratiladi, mehnat esa ilgari yollanma ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va kapitalistik ekspluatatorlar tomonidan o'zlashtirilgan. Birovning mulkiy huquqlarini uzrli sabablarsiz buzish shariat sudi tomonidan javobgarlikka tortiladi.

Yuqorida islom iqtisodiyoti va an'anaviy iqtisodiyot xususiyatlari o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqildi. Endi islom banklarining tashkil etilishiga to'xtalish lozim. Islom banklarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar XX asrning 40-yillari oxirida paydo bo'lishiga qaramay, bu boradagi birinchi amaliy qadamlar 60-yillarning boshlarida qo'yildi. Xususan, Mit-G'amradagi (Misrdagi Nil deltasi) jamg'arma kassasi foizsiz faoliyat yurituvchi moliya institutini tashkil etish bo'yicha birinchi muvaffaqiyatli tajriba bo'lib, keyinchalik bu "islom banki" atamasi paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu loyihaning rahbari Ahmad Ali-Nagtar shahar va uning atrofidagi qishloqlar aholisi uchun doimiy tashviqot olib bordi, bu esa ushbu kassaga 1963-yilda o'zining birinchi filialini ochishga imkon berdi [16].

Ushbu loyihaning maqsadi Misrda yashovchi qishloq aholisining jamg'armalarini uning iqtisodiyotini sanoatlashtirishni moliyalashtirish uchun safarbar qilish edi. Loyiha muvaffaqiyatli chiqdi, ammo 1967-yilda u siyosiy sabablarga ko'ra tugatildi [19].

1971-yilda Misrda hukmron partiyaning siyosiy yo'nalishi o'zgardi va birinchi davlat islom banki – "Nasr Sotsial Bank" tashkil etildi. 1975-yilda BAA da birinchi xususiy islom banki "Dubai Islamic Bank" tashkil etildi. 1970-yilning o'rtalaridan boshlab islom banklari soni aholisining aksar qismini musulmonlar tashkil qiluvchi davlatlar hisoblangan Eron, Liviya, Misr, Iordaniya, Bahrayn, Sudan, Quvayt, BAA, Tunis, Mavritaniya va Malayziyada tez sur'atlar bilan ko'paydi [17]. Musulmonlarning umumiy aholisidagi ulushi kichik bo'lgan Buyuk Britaniya, Daniya va Shveysariyada ham islomiy moliya institutlari tashkil etildi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab o'z nomlarida "islom" so'zini o'z ichiga olgan dastlabki nobank moliya institutlari Misrda paydo bo'la boshladi. Ularning arabcha nomi "Sharikat Ausif Al-Amval" bo'lib, "Islom investitsiyasi jamiyatlari" degan ma'noni anglatadi. 1988-yil boshida Misrda jami kapitali 4-8 milliard AQSh dollarni tashkil etuvchi umumiy investorlari soni 3 million kishi bo'lgan 300 dan ortiq nobank moliya kompaniyalari mavjud edi.

1988-yilgacha dunyo mamlakatlarida islom bank tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi

qonunlar mavjud bo'lmaganligi sababli ular buxgalteriya balansi va yillik hisobotlarni e'lon qilishlari, kuzatuv kengashlarini tuzish, aksiyadorlar yig'ilishlarini o'tkazishlari shart emas edi. Kompaniyaning egasi mablag'larni investitsiyalash bo'yicha barcha masalalarni mustaqil ravishda hal qilgan va investorlarga to'naladigan to'lovlar miqdorini belgilagan. Depozit shartnomalari bo'yicha bu tashkilotlar o'zi tomonidan tasdiqlangan foyda va zararlarni taqsimlashda ishtirok etish tizimidan foydalangan holda shariat asosida ishlagan.

Misrdagi bunday jamiyatlarning eng katta yutug'i omonatlarining rentabelligi edi. Oddiy banklar omonatlar uchun mijozlariga yiliga 7 foiz to'lagan bo'lsa, islom investitsiya kompaniyalari 24 foiz, hatto ba'zan 30 foizgacha to'lagan [20]. Bu davrda islom moliyasi sohasida firibgarlik holatlarining dastlabki ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Qayd etish joizki, bunday tajribalar Fors ko'rfazi mamlakatlarida islom moliyasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. 1990-yillarning birinchi yarmiga kelib islom shiati asosida faoliyat yurituvchi moliya institutlari obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatgan bir qator voqealar qayd etildi.

Aholiga islom bank xizmatlarini ko'rsatgan birinchi tashkilot 1963-yilda Malayziyada tashkil etilgan "Perbadanan Wang Simpanan Bakal-Bakal Haji" (PWSBH) edi. Ushbu tashkilot barcha bank xizmatlarini ko'rsatmasa-da, lekin aholiga Haj uchun mablag' to'plashga ko'maklashgan. 1969-yilda u "Pejabat Urusan Haji" bilan birlashib, Haj ishlari boshqarmasi (Lembaga Urusan dan Tabung Haji) tashkil etildi. Qayd etish joizki, ushbu moliya muassasasi bugungi kungacha mavjud bo'lib, Saudiya Arabistoniga ziyoratchilarni Haj ziyoratiga jo'natish masalalarini muvaffaqiyatli hal etib kelmoqda.

Islom bank tizimi quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak:

1. Kapitalni to'plashda davlatga yetakchi rol beriladi.

2. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bank kapitalini to'plashda qat'iy belgilangan foizni olishning zarurati yo'qligi.

3. Foiz olish, shuningdek, qimmatbaho metallarni jamg'arish va sarflash taqiqlanadi. Bu ikki tomonlama pozitsiya, diniy iqtisodiy siyosatga ko'ra, tovar ayirboshlash pul muomalasidan ustun bo'lganligi bilan izohlanadi.

4. Zakot tamoyilini qo'llash.

5. Aholini taqiqlangan faoliyatdan foyda olmaslikka keng targ'ib qilish. Banklarning roli va funksiyalari haqidagi islom moliyasining g'oyalari

bank faoliyatidagi hozirgi real vaziyatga to'g'ri kelmasligi sababli shariat me'yorlarini iqtisodiy munosabatlar shakllariga moslashtirish zarur.

Islom va an'anaviy bank tizimining farq qiluvchi jihatlari moliyaviy vositachilik xizmatlarini talqin qilishdadir. Muzoraba foyda olishda sheriklikni ifodalaydi. "Bir tomon pul mablag'larining egasi har qanday korxonaga kapital kiritadi, ikkinchi tomonning (muzoraba – agent) hissasi esa uning jismoniy va intellektual mehnati yoki boshqaruv faoliyati xarajatlari asosida yotadi, buning natijasida korxonada ishlaydi" [17].

Kredit operatsiyalari bo'yicha foizlarni undirish zarurati G'arb iqtisodiyotida kamdan-kam shubha ostida bo'ladi. Islom jamiyati esa foizga nisbatan salbiy munosabatda, chunki unga adolatsizlikni yuzaga keltiruvchi va mehnatkashlarning ekspluatatsiyasini ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun islomiy jamiyatda foizni yo'q qilish zarur deb hisoblanadi.

Islom banklari kapitaliga sarmoya kiritish samaradorligini baholash an'anaviy banklarni bozordan siqib chiqarish bo'yicha ularning faoliyati natijalarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Ko'p hollarda islom banklari faoliyatining tarkibiy qismi ularning an'anaviy banklarga nisbatan afzalliklarini belgilaydi. Diniy qarash tufayli an'anaviy banklarga kapital qo'yishdan yoki uni foiz evaziga olishdan cheklanmoqda. Islom banklari omonatchilarning mablag'larini jalb qilish uchun ko'proq mos keladi, aks holda ularning qo'lida samarasiz kapital to'planadi.

Islom banklari iqtisodiy munosabatlari oddiy banklar kirishi mumkin bo'lmagan sohalariga kirib borishga muvaffaq bo'ldi. Bu munosabatlar ularga ishonchsizlik tufayli ilgari bank xizmatlaridan foydalanmagan yer egalari va kichik, kam daromadli loyihalarni moliyalashtirishni istamagan oddiy banklarning o'zaro munosabatlari o'z ichiga oladi. Islom banklari ilgari foydalanilmagan kapitalni moddiy ishlab chiqarish sohasiga yo'naltira oladi va bu musulmon mamlakatlarida fond bozorining kuchsiz rivojlanishini hisobga olgan holda muhimlik darajasi juda yuqori. Islom banklari investitsiya kompaniyalariga o'xshash tarzda ishlaydi, bu esa bank va pudratchi o'rtasida an'anaviy bank va uning qarz oluvchilari o'rtasidagi munosabatlardan ko'ra kuchliroq munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi.

Islom banklari faoliyatiga G'arb davlatlarining islom dini tarqalgan hududlardagi aksariyat davlatlarning hukmron elitalariga nisbatan siyosiy va iqtisodiy bosimi ta'sir ko'rsatadi. Islom moliya institutlari har qanday holatda ham an'anaviy

banklar, valyuta fondlari, fond birjalari va jahon moliya bozori ishtirokchilariga bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarning bevosita xorijiy investitsiyalar importidagi roli va rivojlangan mamlakatlarning bevosita xorijiy investitsiyalar eksportidagi roli ortib bormoqda [21].

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida islom moliyasi xizmatlarining tarqalishi musulmonlar soniga mutanosibdir, bu esa ushbu jamiyatda paydo bo'lgan islom iqtisodiy munosabatlar madaniyatining o'sishidan dalolat beradi. G'arbiy Yevropa davlatlarida islom dini jamiyatning madaniy, ijtimoiy rivojlangan va moliyaviy jihatdan ta'minlangan qismini tashkil etuvchi olimlar, siyosatchilar va ishbilarmenlar orasida keng tarqalmoqda.

**Xulosa va takliflar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosa va takliflarni amaliyotga joriy etish mamlakatimizda Islom banklari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi, degan fikrdamiz:

- banklarning monopoliyasiga qarshi siyosatni amalga oshirish va bu borada muayyan turdagi normativ huquqiy bazani shakllantirishni taqozo etmoqda;

- markaziy bankning litsenziyasiga ega bo'lmagan, lekin shu bilan birga, moliya instituti sifatida o'z mijozlariga cheklangan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi yoki moliyaviy xususiyatiga ko'ra shunga o'xshash xizmatlarni taklif qiluvchi tashkilot kvazibank institutlarini tashkil qilish;

- alohida litsenziyalash va yagona majburiy hisobot shakllarini joriy etish orqali kvazibank institutlarining reyestrini yaratish orqali buday kompaniyalar faoliyati ustidan qo'shimcha davlat nazoratini joriy etish;

- moliyaviy xizmatlarning keng doirasini ko'rsatish orqali bank bozorining investitsion jozibadorligini oshirish;

- mijozlar bazasini kengaytirish va o'zaro hamkorlikning shaffof mexanizmini ta'minlash orqali yashirin iqtisodiyot bozorini qisqartirish;

- Islom dinida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish uchun institutsional me'yorlarni joriy etishdagi asosiy imkoniyat islom ta'limotlari qoidalariga e'tiqod qiluvchi insonlarning ma'naviy va moddiy dunyosiga kiritishga asoslanishi lozim;

- aholini taqiqlangan faoliyatdan foyda olmaslikka keng targ'ib qilish. Banklarning roli va funksiyalari haqidagi islom moliyasining g'oyalari bank faoliyatidagi hozirgi real vaziyatga to'g'ri kelmasligi sababli shariat me'yorlarini iqtisodiy munosabatlar shakllariga moslashtirish zarur.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ярыгина И.З. Банковская система Канады: решение современных вызовов. // США и Канада: экономика, политика, культура. 2017. № 2 (566). С. 87.
2. Ahmed Zebal M., M. Saber H. Market orientation in Islamic banks—a qualitative approach. // Marketing Intelligence & Planning. 2014. Т. 32. №. 4. С. 495-527.
3. Ghayad R. Corporate governance and the global performance of Islamic banks. // Humanomics. 2008. Т. 24. №. 3. С. 207-216.
4. Abdel Karim R.A. The nature and rationale of a conceptual framework for financial reporting by Islamic banks. // Accounting and business research. 1995. Т. 25. №. 100. С. 285-300.
5. Karim R.A.A. International accounting harmonization, banking regulation, and Islamic banks. // The International Journal of Accounting. 2001. Т. 36. №. 2. С. 169-193.
6. Шовхалов Ш.А. Привлечение заемных средств на условиях совместного партнерства согласно исламским правилам. // Проблемы экономики и юридической практики. 2014. №. 2. С. 55-59.
7. Мазурина Т. Ю., Шарипов Ш. Ф. Банковское регулирование и надзор в традиционных и исламских финансах: сравнительный анализ и особенности реализации. // Вестник университета. 2020. №. 6. С. 144-151.
8. Абропов С. (2023). Banklar faoliyatida xulq-atvor iqtisodiyotining ahamiyati. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 12-20.
9. Alessandro Carretta, Franco Fiordelisi (2000). Competition E Regulation In The Banking And Quasi-Banking Industries: Evidence From Italy Journal of Political Economy, 87.
10. [https://gadebate.un.org/sites/default/files/gastatements/64/64\\_SG\\_en.pdf](https://gadebate.un.org/sites/default/files/gastatements/64/64_SG_en.pdf)
11. <https://www.japantimes.co.jp/opinion/2008/10/05/commentary/world-commentary/eu-financially-vulnerable-when-confidence-collapses/>
12. <https://morb.bsp.gov.ph/instruction-to-users/>
13. Rossiya Fuqarolik kodeksining 82-moddasi, 3-bandi.
14. Тарасенко О.А. Квазибанки в банковской системе России. // Законы России: опыт, анализ, практика. 2013. № 7 (299). С. 82-86.
15. Rusakovich, V.I. Ko'rfaz mamlakatlari milliy iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish yo'nalishlari: Bahrayn Qirolligining alyuminiy sanoati. // Iqtisodiyot va tadbirkorlik. 2017-yil. 8-2 (85)-son. 185-bet.
16. Alam N., Gupta L., Shanmugam B. Islamic Finance. A Practical Perspective. – N.Y.: Springer, 2017. P. 9.
17. Журавлев А.Ю. Концептуальные начала исламской экономики. // Исламские финансы в современном мире. Экономические и правовые аспекты. / под.ред. Р.И.Беккина. – М.: УММА, 2004. С.14.
18. Глоссарий. // Исламские финансы в современном мире. Экономические и правовые аспекты. / Под ред. Р.И. Беккина. – М.: УММА, 2004. С. 270.
19. Жданов С.В. Исламская экономика: ретроспективный анализ. // Финансовый бизнес. 2000. № 5. С. 35-41.
20. Ибадов Э.С., Шмырева А.И. Этапы развития исламского банковского дела, характеристика и мировой опыт. // Вестник Томского государственного университета. 2015. №. 390. С. 152.
21. Shkvaryya L.V., Tirkba X.V. Xalqaro kapital migratsiyasi jarayonidagi global o'zgarishlar va rivojlanayotgan bozorlarga ega mamlakatlarning roli. // Iqtisodiyot va tadbirkorlik. 2017 yil. 8-3 (85)-son. 75-bet.



**KREDITLASH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI  
TRANSFORMATSIYANI RIVOJLANTIRISHDA BLOKCHEYN  
TRANZAKSIYALARINI IMZOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Raximberdiyev Quvonchbek Bakhtiyorovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Iqtisodiyotda matematik metodlar  
kafedrasida o'qituvchisi

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss1/a11](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a11)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, blokcheyn tranzaksiyalarini shakllantirish jarayonlari tadqiq etilgan. Shuningdek, kreditlash blokcheyni tranzaksiyalarini imzolash mexanizmlari va ularning nazariy asoslar ko'rib chiqilgan. Mazkur ilmiy tadqiqot davomida kreditlash blokcheyni tranzaksiyalarini imzolash imzolash va imzoni tekshirish jarayonini o'z ichiga oluvchi model taklif etilgan. Taklif etilgan modelda tranzaksiyalarni imzolashda ECDSA (Elliptic Curve Digital Signature Algorithm) elliptik egri chiziqlarga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmi tadbiriq etilgan bo'lib, elliptik egri chiziqlarning umumiy modeli, samarali elliptik egri chiziqlarni tanlash hamda uni DSA elektron raqamli imzo algoritmiga tadbiriq keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli banking, kreditlash, raqamli transformatsiya, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyuta, tranzaksiya, elektron raqamli imzo, kriptografik algoritm, Bitcoin, Ethereum, Litecoin, elektron tijorat.